



**INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI
TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR**

Abduvohidov Akmal Abdulazizovich

Guliston davlat universiteti,

Kamilova Sanobar Mirdjamalovna

TDIU huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazi

Annotasiya. Bugungi iqtisodiyotni harakatlantiruvchi muhim dastaklardan biri – bu inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitali sifatini yaxshilash va uni boyitish iqtisodiyotning har qaysi bo'g'inida muhim o'rin tutadi. Iqtisodiyotning innovasion rivojlanishini ta'minlashning muhim manbalaridan biri bo'lgan inson kapitalini tadqiq etish masalalariga mahalliy va xorijiy olimlar katta e'tibor qaratishmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada inson kapitalini tadqiq etishdagi nazariy yondashuvlar va tendentsiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, innovasion taraqqiyot, inson kapitali, bilim, innovasion texnologiyalar, inson kapitali sifati, inson kapitali tashkil etuvchilari, iqtisodiy farovonlik, innovasion taraqqiyot modellari.

**ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ИННОВАЦИОННОГО
РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ**

Абдувохидов Акмаль Абдулазизович

Гулистанский государственный университет,

Камилова Санобар Мирджамаловна

Научно-исследовательского центра при ТГЭУ

Аннотация. Одним из важных рычагов, движущих современной экономикой, является человеческий капитал. Повышение качества человеческого капитала и его обогащение занимает важное место на любом звене экономики. Большое внимание отечественные и зарубежные ученые уделяют вопросам исследования человеческого капитала, являющегося одним из важнейших источников обеспечения инновационного развития экономики. Исходя из этого, в данной статье будут проанализированы теоретические подходы и тенденции в исследованиях человеческого капитала.

Ключевые слова: национальная экономика, инновационный прогресс, человеческий капитал, знания, инновационные технологии, качество человеческого капитала, организаторы человеческого капитала, экономическое процветание, модели инновационного развития.

HUMAN CAPITAL AND APPROACHES TO THE STUDY OF INNOVATIVE ECONOMIC DEVELOPMENT

Abduvokhidov Akmal Abdulazizovich

Gulistan State University,

Kamilova Sanobar Mirdjamalovna

Employee of the Research Center at TSEU

Annotation. One of the important levers driving the modern economy is human capital. Improving the quality of human capital and enriching it occupies an important place at any level of the economy. Russian and foreign scientists pay great attention to the issues of human capital research, which is one of the most important sources of ensuring innovative development of the economy. Based on this, this article will analyze theoretical approaches and trends in human capital research.

Keywords: national economy, innovative progress, human capital, knowledge, innovative technologies, quality of human capital, organizers of human capital, economic prosperity, models of innovative development.

Kirish.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'riladi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, butun hayot faoliyati davomida uzluksiz ta'lim asosida insonlarning kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida nisbat o'zgarayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Jahon banki dunyoning "141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining umumiy qiymatidagi ulushi 64 %ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning hajmi 55 % ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 %ga to'g'ri keldi" (Lange, Glenn-Marie and other, 2018). Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, "mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi" (World Bank Group, 2018) ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarimoqda. An'anaviy omillar (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lim, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda.

O'zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko'rsatkichining ulushi 62 % ni tashkil qilgani holda, jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra dunyo mamlakatlari bo'yicha milliy boylik tarkibida jismoniy kapitalning ulushi o'rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi).

Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasidagi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada tadqiqotchilar tomonidan ko'p sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, "inson kapitali" kategoriyasini aniqlashtirishda muayyan noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga, uning tashkil etuvchilariga hanuz to'liq oydinlik kiritilmagan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri miqdor jihatdan baholanmagan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning tarkibi topishi sharoitida milliy iqtisodiyotda inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta'minlash uslubiyoti borasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining salmog'i yetarlicha emas.

Adabiyotlar sharhi.

Inson kapitali nazariyasiga mustaqil nazariya sifatida XX asrning 50-60 yillarida Chikago maktabi namoyondalari tomonidan asos solingani holda, inson kapitali shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari Shults (1961), Bekker (1962), Bouen (1977), Blaug (1976), Mincer (1958), Polachek, Mincer (1974) ishlarida shakllantirildi va yanada rivojlantirildi. Bundan tashqari, inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri bo'yicha tadqiqot olib borgan g'arb iqtisodchi olimlari sirasiga Shumpeter (2007), Keyns (1993), Xarrod (1959), Agiyon (2004), Xansen (1951) va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Bu tadqiqotlarda, inson kapitalining iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sirini zamonaviy fan nuqtai-nazaridan yondashgan va innovatsion faoliyat ko'lamidan o'sib boruvchi samaradorlikni hisobga olib, o'zida endogen iqtisodiy o'sish nazariyalarini mujassamlashtirgan Agiyonning (2004) tadqiqotlari muhim o'rin tutadi.

Inson kapitali va uning pirovard natijasi bo'lgan innovatsion investitsiyalarning va ularning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'siri muammolarini tadqiq etishga katta hissa qo'shgan olimlar qatorida Nuriev (2000), Notkin (1996), kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq qilishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Jumladan akademiklar Ubaydullaeva (2017), Abduraxmonov (2017) inson kapitalining turli jihatlarini tadqiq etganlar. So'nggi yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi xodimi Sh.G.Akramova tomonidan yaxlit bir tizim sifatida talqin qilinuvchi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri masalalari atroflicha o'rganilgan (Akramova, 2019).

Mazkur tadqiqotlar O'zbekistonda inson kapitali rivojlanishini baholash masalalariga ulkan hissa qo'shgan bo'lsada, yangicha iqtisodiy munosabatlar sharoitida mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning zarurati mazkur ilmiy-tadqiqot ishi mavzusini tanlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Inson kapitalining shakllanishi va undan samarali foydalanish borasidagi yondashuvlarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish maqsadida mazkur ilmiy ish doirasida taqqoslash, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanildi. Inson kapitali borasidagi mualliflik yondashuvlarini asoslash maqsadida sohaga doir ilmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Innovatsion rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar qatoriga hududiy sharoitda o'zgarishlarning ko'lemi, tezligi va chuqurligidagi farq ham kiradi.

1-jadval

Mavjud innovatsion rivojlanish modellarining taqqoslanma tavsifi va tahlili¹

Maqsad	Vazifalar	Model yadrosi	Innovatsion tsikl
I. "Evroatlantik model" (Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya)			
To'liq innovatsion tizim tsiklini yaratish	-xususiy ishlanmalarni tijoratlashtirish; - zaruriy ishlanmalarni import qilish; -yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni eksport qilish	Universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari	To'liq innovatsion tsikl
II. "Sharqiy Osiyo modeli" (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan)			
Jahon innovatsion tizimiga integratsiya qilingan innovatsion tizimni barpo qilish	-zaruriy ishlanmalarni import qilish; yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni eksport qilish	Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va korporatsiyalar qoshidagi amaliy tadqiqot markazlari	Fundamental fanning mavjud emasligi
III. "Muqobil model" (Tailand, Chili, Turkiya, Iordaniya, Portugaliya)			
Taraqqiy etgan mamlakatlarning innovatsion tizimlari bilan itegratsiya qilish	yuqori texnologiyali mahsulot va texnologiyalarni import qilish	Universitet va texnoparklarning innovatsion infratuzilmasi	Fundamental va amaliy fanning mavjud emasligi
IV. "Uchlamchi spiral" modeli (AQSh, mazkur modelning ayrim unsurlari Yevropa mamlakatlarining milliy innovatsion tizimida o'z aksini topgan)			
Boshqa mamlakatlarning innovatsion tizimlarini yutib yuborig asosida moliyaviy resurslarni jamlash	-xususiy ishlanmalarni tijoratlashtirish; - yuqori texnologiyali mahsulot eksportini yo'lga qo'yish	Fan-davlat va biznesning o'zaro hamkorligi	To'liq innovatsion tsikl

Turli ziddiyatlarning vujudga kelishi asnosida nomutanosibliklarning o'sishi hududlarning innovatsion taraqqiyotida farqlanishlarni keltirib chiqaradi (Барлыбаева, 2011), bu esa o'z navbatida innovatsion rivojlanish darajasini belgilab beruvchi omillarni har jihatdan o'rganishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 52-maqsad sifatida: "Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish" - belgilab berilishining o'ziyoq, innovatsion iqtisodiyotni qaror toptirish masalasi milliy iqtisodiyot uchun naqadar muhimligidan dalolat beradi.

¹ Axmedov D.K., Numanov K.F. Teoritecheskie aspekto' innovatsionnoy modeli ekonomiki. Iqtisodiyot va ta'lim/2020№4

Hozirda jahonda biznes, fan va davlatning o'zaro aloqalariga asoslangan innovatsion taraqqiyotning to'rtta modeli mavjud bo'lib, mamlakatlar muayyan shart-sharoit va omillarni hisobga olgan holda, u yoki bu modelni tanlashni ma'qul ko'radilar. Mavjud innovatsion taraqqiyot modellarining afzalliklarini taqqoslash va ularni o'rganish asosida universitet, sanoat va davlatning o'zaro munosabatlariga asoslanuvchi, "uchlamchi spiral" modeli katta qiziqish uyg'otadi. Mazkur modelda innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda universitetlarga katta e'tibor qaratiladi. 1995 yilda Buyuk Britaniyada Nyukastl universiteti professori Genri Itskovits Amsterdam universiteti professori Loyet Leydesdorflar tomonidan "uchlamchi spiral" modeli taklif qilinadi (Etzkowitz, Zhou, 2017). Innovatsion rivojlanishning boshqa modellaridan farqli o'laroq, "uchlamchi spiral" modelida uchta tashkil etuvchi: universitet, biznes va davlatning o'zaro ta'sirlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon banki kabi yirik xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar uzoq yillardan buyon "nomoddiy" inson kapitali va ijtimoiy kapitalni yaxlit hodisa sifatida o'rganish bilan shug'ullanib keladi. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, "inson kapitali"ni ta'riflash borasida yaxlit bir yondashuv mavjud emas.

2-jadval

Innovatsion rivojlanishning mavjud modellari tahlili va taqqoslanma tavsifi²

Davlatning o'рни	Innovatsion faollikni rag'batlantirish usullari	ITTKilarini moliyalashtirish jihatlari	O'ziga xos farqli xususiyatlari
I. "Evroatlantik model" (Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Italiya)			
-davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi orqali innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash; -innovatsion sohada davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rag'batlantirish; -innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, tijoratlashtirishda ko'maklashish	-qonunchilik bazasini takomillashtirish; -moliyaviy; -soliq	-davlat grantlari; -xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish; - davlat tomonidan qo'shimcha xarajatlarning amalga oshirilishi	Innovatsion taraqqiyotni ta'minlash strategiyasini amalga oshirishda davlatning islohotchilik vazifasi va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda xususiy biznesning katta o'rin tutishi
II. "Sharqiy Osiyo modeli" (Yaponiya, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan)			
-korporatsiyalarning innovatsion faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish; -yuqori texnologiyali mahsulot eksportiga mo'ljal olish	Innovatsion faollikni shakllantirish borasida tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish	Davlat va xususiy sektor xarajatlari. Xususiy sektor xarajatlarining ustunligi (qariyb 80%)	Innovatsiyalarning asosiy buyurtmachisi va iste'molchisi-yirik biznes
III. "Muqobil model" (Tailand, Chili, Turkiya, Iordaniya, Portugaliya)			
-innovatsion infratuzilmani yaratish va rivojlantirish; -innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash; -yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish; -innovatsion taraqqiyotni ta'minlash borasida ustuvor sohalarni tanlab olish	Innovatsion faollikni ta'minlash borasida tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish	Davlat va xususiy sektor xarajatlari. Innovatsion infratuzilma uchun kadrlar tayyorlash asosan davlat tomonidan moliyalashtiriladi	Innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsiyalarni moliyalashtirishda davlatning etakchi mavqei
IV. "Uchlamchi spiral" modeli (AQSh, mazkur modelning ayrim unsurlari Yevropa mamlakatlari)			
-innovatsion faoliyat ishtirokchilarining faol hamkorligini yo'lga qo'yish borasida barcha shart-sharoitlarni yaratish; -texnologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlash; ITTKilari natijalarini tijoratlashtirishni rag'batlantirish	-qonunchilik bazasini takomillashtirish; -moliyaviy; -soliq	Davlat va xususiy sektor xarajatlari; -venchur kapitaldan foydalanish; - xususiy sektor xarajatlarining ustun mavqei (qariyb 60%)	Innovatsion faoliyat ishtirokchilarining bir-birini to'ldirish mexanizmi

² Axmedov D.K., Numanov K.F. Teoritesheskie aspekto' innovatsionnoy modeli ekonomiki. Iqtisodiyot va ta'lim/2020№4

Jamg'arilgan bilimlar ko'rinishida shaxsning nomoddiy boyligi sifatida inson kapitalini turli yo'llar bilan ko'paytirish mumkin: ta'limni davom ettirish, yangi bilimlar yaratish va ixtirolarni patentlash, boshqaruv ko'nikmalarini takomillashtirish. Bundan xulosa qilish mumkinki, inson kapitali shaxs egalik qiluvchi bilim, ko'nikma va tajribalarning umumiyligini ifoda etsa, ijtimoiy kapital esa undan insonlarning birgalikdagi faoliyatida foydalanishni aks ettiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, qo'shilgan qiymat yaratish yoki hayot sifatini yaxshilash jarayonida foydalanilmaydigan yuqori sifatli inson resurslarini inson kapitali sifatida baholab bo'lmaydi.

3-jadval

Inson kapitali va ijtimoiy kapital tushunchalarining ta'rifi³

Inson kapitali	Ijtimoiy kapital
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti	
Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda talab qilinuvchi va muayyan bir shaxs tomonidan egallangan bilim, malaka, ko'nikma va shu kabi sifatning yig'indisi	Belgilangan maqsadlarga erishish borasida insonlarga o'z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi ijtimoiy tuzilmalarda qaror topgan me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar
Jahon banki	
Inson tomonidan egallangan va uning mehnat samaradorligini oshirishga imkon beruvchi bilim, malaka va ko'nikmalarning yaxlitligi. Inson kapitalini ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik kabi-larga sarmoya kiritish orqali ko'paytirish va sifatini yaxshilash mumkin	Jamoaviy hatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi o'zaro aloqalar, urf-odatlar va institutlarni o'z ichiga oladi
Yevropa Ittifoqining ijtimoiy o'lchovlar va bandlik bo'yicha oliy darajadagi guruhi	
Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy farovonlikka imkon beruvchi xaxsga tegishli bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetentsiyalar	Umumiy maqsadlarga erishish uchun guruh ichida yoki guruhlar o'rtasida o'zaro hamkorlikka zamin yaratuvchi o'zga shaxslarning qadriyatlarini, urf-odatlarini, axloqiy me'yorlarini hurmat qilgan holda ijtimoiy hayotda ishtirok etish (European Council,2003)
Qirollik texnologik instituti tadqiqotchilari KTH (Stokgolm)	
Ijtimoiy kapital- ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratiluvchi, to'planuvchi va uzatiluvchi munosabatlar, me'yorlar va qoidalarining jamlanmasi (Westlund, Gawell,2012.P.104)	

Quyidagi 4-jadvalda bilimlarning turlari keltirib o'tilgan. Bilimlar aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlardan tortib, ijtimoiy hamkorlik jarayonida foydalaniluvchi bilimlarga bo'lgan turlarga bo'linadi. Inson kapitalini nafaqat muayyan bir shaxs, balki butun bir jamiyatning farovonligi va raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida baholash lozim, chunonchi mamlakatning taraqqiyoti birinchi navbatda intellektual salohiyatga bog'liq ekanligi bugun kunning hayotiy haqiqatiga aylanib ulgurdi.

4-jadval

Bilimlar kategoriyasi⁴

Know-what	Amaliy bilimlar
Know -whu	Jamiyat, tafakur, tabiat qonunlari va tamoyillari haqidagi bilimlar
Know- how	Ko'nikmalar, yaratuvchanlik qobiliyati (ijodiy faoliyat)
Know- who	Hamkorlikka, turli insonlar va ekspertlar bilan muloqotga kirishuvchanlikka bo'lgan layoqat

Inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ta'sirini baholash hamda aks ta'sirni tahlil qilish bo'yicha qo'llanilgan turli xil nazariy yondashuvlar, usullar va ma'lumotlardan foydalanilgan tadqiqotlar xilma-xil natijalar beradi, bu esa ushbu holatni keltirib chiqaruvchi sabablarni atroflicha o'rganishni taqozo qiladi.

³ <https://mgimo.ru/upload/iblock/19f/19fe6395e5a15150f715f072dd07a1fa.pdf>

⁴ OECD,2001.P.18-19.

XX asrning dastlabki yillaridan boshlab, inson kapitalining milliy iqtisodiyot va hududlarning innovatsion rivojlanishiga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlar amalga oshira boshlangan. Akademik S.G.Strumilin 1920-yillarda ta'limning mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga ta'sirini tahlil qilgan.

1960-1970 yillarda rossiyalik olimlar (A.I.Anchishkin, T.S.Xachaturov, Yu.V.Yaremenko) iqtisodiy rivojlanish kontseptsiyasini ishlab chiqadilar va bunda ular intensiv o'sish va uning miqdoriy jihatlariga alohida urg'u beradilar. 1980-yillarning boshlariga kelib, iqtisodiy o'sish nazariyasi shakllandi, mazkur nazariyada ishlab chiqarish kuchlaridan samarali foydalanish va rivojlantirish borasidagi qarashlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga xizmat qiluvchi tarmoq va sohalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

G'arblik iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan ham inson kapitalining innovatsion taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta'siri borasida keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirilgan. Inson kapitali borasidagi fundamental nazariy g'oyalar ta'limning tashqi samarasidan foydalangan holda o'sish manbalarini izohlashga xizmat qiluvchi iqtisodiy o'sish modellarida tushuntirib berilgan. Bu boradagi tadqiqotlar sirasiga "birinchi to'lqin" endogen iqtisodiy tadqiqotlarni kiritishimiz mumkin, bunda ishlab chiqarish omillarining cheklangan mahsuldorligi kamaymasligi yoqlanadi. Keyinchalik texnik taraqqiyot ko'lamlari, innovatsiyalarni yaratish va ulardan amalda samarali foydalanish bilan bog'liq jihatlar ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topa boshladi, bu esa navbatida iqtisodiy o'sishda innovatsiyalarning o'zni to'g'risida nazariy qoidalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Endogen iqtisodiy o'sish borasidagi tadqiqotlarning "ikkinchi to'lqini" sifatida Romer, 1990; Agion, Xovit 1990, 1992; Grossman, Xelpman, 1991 kabi tadqiqotchilarning asarlarida o'z aksini topdi (Шапаев, 2006).

Texnologik jihatdan qoloqlikni bartaraf qilish va shu asnoda innovatsion taraqqiyotni ta'minlash milliy xo'jalikda texnologiyalarni yaratish yoki ularni texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlardan qarzga olish evaziga ta'minlanishi mumkin.

Texnologiyalarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yoki texnologik jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga taqlid qilish mamlakatlararo va mamlakat darajasida, shuningdek mikro darajada ham o'rganiladi. Bu borada so'nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy izlanishlar salmog'i ozchilikni tashkil qiladi.

Inson kapitalining korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta'siri atroflicha o'rganilgan bir qator ilmiy izlanishlar mahsuli bo'lgan tadqiqot natijalari mavjudligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bunday tadqiqotlar qatorida 1980-1990 yillar davomida 42 ta mamlakatda 37 ta sanoat tarmoqlari ma'lumotlarini tahlil qilish asosida inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ijobiy ta'sirini asoslab bergan Karina Xitch va Jovanni Sulis va inson kapitalining iqtisodiy o'sishga ta'sirini statistik jihatdan o'rgangan Di Libertoning ilmiy izlanishlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyoti iqtisodiy tizim ishtirokchilarining o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, shu jumladan takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar tizimining o'zgarishiga tayanadi. O'tish jarayonlari ko'p jihatdan ilmiy-texnik taraqqiyot ta'siri darajasi va sifatiga bog'liq hisoblanadi. Tadqiqotchilar jamiyatning tarixiy va tadrijiy taraqqiyoti davomida yuz bergan bunday o'zgarishlarning bir necha bosqichlarini ajratib ko'rsatadilar. Bunday texnologik o'zgarishlarning birinchi bosqichi o'tgan asrimizning 50-yillarida boshlangan va yarimo'tkazgich elektronikasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa; ikkinchi bosqich 1960-yillarda boshlangani holda, texnologik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan aksariyat g'oyalar mikroelektronikada o'z ifodasini topgan; uchinchi bosqich o'tgan asrning etmishinchi yillariga to'g'ri keladi va mikroprotsessor texnologiyalarining rivojlanishi va shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqarilishi bilan ajralib turadi. 1980-1990 yildan to hozirgi kungacha davom etayotgan beshinchi texnologik tartib energiya va moddiy iste'mol borasidagi iqtisodiy cheklovlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish jarayoni va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning rang-barangligini oshirish bilan bog'liq.

Inson kapitali borasida ilk zamonaviy nazariyalar amerika va ingliz iqtisodchi olimlari tomonidan 1950-60 yillarda yaratilgani holda, ularning yaratilishi ishlab chiqarish jarayonini texnologik jihatdan tashkil etish borasidagi o'zgarishlar bilan vaqtga to'g'ri kelishi bilan tavsiflanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, mazkur davr mboaynida inson kapitalining moddiy boylik yaratishdagi ulushi muttasil tarzda o'sib borgan va o'tgan asrning etmishinchi yillariga kelib, uning ulushi taxminan 60% ni tashkil qilgan.

Sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda inson kapitali nazariyasini rivojlantirish borasidagi tadqiqotlar bir muncha kech, xususan XX asrning 90-yillarida jadallasha boshladi, bu boradagi tadqiqot sirasiga M.M.Kritko, SA Dyatlova, I.V. Ilinskiy, R.I.Kapelyushnikov, A.L.Lukyanova kabi oimlarning ilmiy izlanishlarini kiritishimiz mumkin.

Umuman olganda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda inson kapitali nazariyasi iqtisodiy tadqiqotlar orasida jadallik bilan rivojlanayotgan tadqiqot sohalaridan biri sanaladi. Inson kapitali borasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning tahlili inson kapitali borasida nazariy qarashlar va qoidalar shakllanishining uchta bosqichini farqlash imkonini beradi.

Birinchi bosqich 1960 yillarning boshlariga to'g'ri keladi va "inson kapitali" tushunchasining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda inson kapitali tushunchasi bilim ko'nikma, shaxs qobiliyatlari nuqtai nazaridan "tor" talqin qilinishi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda inson kapitali tushunchasini tadqiq qilish bilan bog'liq ishlar sirasiga Xekman, 1963; Hermanson, 1964; keyinchalik Bekker, 1993; Topel, 1990; Biati, Smit, 2010 kabi olimlarning ishlarini kiritishimiz mumkin. Sal keyinroq esa, inson kapitalini tahlil qilishda moliyaviy usul va vositalardan foydalanishga katta e'tibor qaratila boshlangan.

Ikkinchi bosqich 1970-1990 yillar oralig'iga to'g'ri keladi va mazkur bosqich bir tomondan, inson kapitalini o'rganishga bo'lgan qiziqishning pasayishi bilan, ikkinchi tomondan esa, inson kapitali tuzilmasining murakkablashishi bilan tavsiflanadi, bunda aholining mehnat faolligini oshirish, ishchi va xizmatchilarning mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, mehnat bozorida mavjud o'zgarishlarga tegishli ma'lumotlarni izlab topishga bo'lgan qiziqishning ortishi, sog'liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va shaxsiy rivojlanishga investitsiya kiritishning kuchayishi kuzatiladi.

Uchinchi bosqich inson kapitalining tadrijiy taraqqiyoti sifatida 1990 yillarning boshidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi va bunda "inson kapitali" milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy manbai sifatida "keng" talqin qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, XXI asrning boshiga kelib, inson kapitali tushunchasini talqin qilishda tarkib va tuzilma jihatdan o'zgarishi ro'y berdi, bunda inson kapitali dastlab ta'lim, sog'liq darajasi va kasbiy harakatchanlikdan iborat, deb hisoblangan bo'lsa, keyinchalik u xodimning motivlari, majburiyatlari ;va xulq-atvor jihatlari bilan boyitildi. Davrlar kesimida "inson kapitali" tushunchasining o'zgarishini tavsiflaydigan bo'lsak quyidagicha manazara namoyon bo'ladi, jumladan bosqichlar davriyligi o'zgarib borishi asnosida inson kapitalining tuzilmasi yanada murakkablashdi. Inson kapitalini baholashda ham o'zgarishlar yuz berdi: dastlab mavjud bo'lgan moliyaviy jihatlarni hisobga olgan ko'rsatkichlar inson kapitalining nomoddiy jihatlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar bilan to'ldirildi. Bundan tashqari, nafaqat inson kapitalining qiymati, balki u tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymatni ham o'lchash imkoniyati paydo bo'ldi.

Inson kapitali tushunchasini talqin qilish borasidagi jiddiy o'zgarishlar, inson kapitali tuzilmasining murakkab ko'rinish kasb etishi asnosida inson kapitalini o'rganish borasida turli yondashuvlarning paydo bo'lishiga zamin yaratib berganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Inson kapitalini o'rganish borasidagi birinchi yondashuvga ko'ra, inson kapitali bilim, ko'nikma, qobiliyat, salomatlik, motivatsiyalar to'plami sifatida tavsiflanadi. Ushbu yondashuv doirasida J.S.Uolsh, L.S.Torov kabi tadqiqotchilar inson kapitalining ta'lim, malaka va ish tajribasi kabi tarkibiy qismlarini alohida ajratib ko'rsatadilar.

Inson kapitali tushunchasini talqin qilishdagi tafovutlar shunda namoyon bo'ladiki, birinchi holatda tadqiqotchilar inson kapitalini o'zida mujassamlashtirgan insonning mavjud qobiliyat va ko'nikmalaridan individual maqsadlarda foydalanishini ko'zda tutsalar, boshqa bir tomondan esa, tadqiqotchilar inson kapitalidan jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarishda foydalanishni nazarda tutadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi yondashuv doirasida inson kapitali "tor doirada" - bilim va ko'nikmalarning jamg'arilgan zahirasi sifatida tushuntiriladi.

Inson kapitalini o'rganish borasida shakllangan ikkinchi yondashuvga ko'ra, T. Shults, F. Maxlup, I. Fisher kabi tadqiqotchi olimlar inson kapitalini kelgusida yuqoriroq daromad keltirishga xizmat qiluvchi qobiliyat, bilim va boshqa shaxsiy xususiyatlar zahirasi sifatida talqin qilishni tavsiya qiladilar. Ikkinchi yondashuv doirasida inson kapitalining talqini individual darajada - qobiliyat va ko'nikmalarni amalga oshirishdan olingan daromad, korxonada darajasida esa raqobatdosh ustunliklar, mahsulot va xizmatlar rentabelligini oshirish, foyda o'stirish kabilarni o'zida aks ettiradi.

Yuqoridagi ikki yondashuvdan farqli o'laroq, uchinchi yondashuv doirasida inson kapitalining mohiyati to'liqroq ochib berilgan. Mazkur yondashuvning S.A. Dyatlov, E. D. Tso'renova, A. N. Dobro'nin, R. I. Kapelyushnikov kabi namoyondalarining fikricha, inson kapitalidan foydalanish shaxs nuqtai nazaridan baholanganda, u aholi daromadlarining o'sishiga, tashkilot nuqtai nazaridan baholanganda esa, korxonada va tashkilotlarning raqobat ustunliklariga ega bo'lishlariga, jamiyat nuqtai nazaridan baholanganda esa, inson kapitali jamiyatda jinoyatchilikning pasayishiga, aholi bandligi va turmush darajasining oshishiga olib keladi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson kapitalidan foydalanishda shaxsning o'zigagina tegishli bo'lgan salohiyatini ro'yobga chiqarishning shaxs nuqtai nazaridan navfiligini emas, balki korxonalar va butun jamiyat uchun inson kapitalidan foydalanishning iqtisodiy va ijtimoiy samarasini ta'kidlaydilar. Uchinchi yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, unda inson kapitali "keng" talqin qilinadi va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy manbai sifatida baholanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan tpidan iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning innovatsion turiga o'tish asnosida inson kapitalini innovatsion iqtisodiyot nuqtai nazaridan o'rganish borasidagi izlanishlar keng yoyildi.

Bunda M. M. Kritskiy, I. V. Ilinskiy, L. G. Simkina kabi tadqiqotchilar faoliyat subyektiga, uning o'zini - o'zi rivojlantirish va takomillashtirish, shaxsning ijodiy qobiliyatlarining iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ta'siri kabi jihatlarga alohida urg'u beradilar, shuningdek, inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanishga ilmiy-texnik inqilobning ta'siri-rini ham e'tiborga olishni taklif qiladilar (Скоблякова, 2006).

"Inson kapitali" tushunchasini talqin qilishda katta farqlanishlar mavjud bo'lsada, mazkur tushunchani ta'riflashda "bilim, ko'nikma va tajribalar zahirasi" degan umumiy jihat mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim.

Mazkur dissertatsion tadqiqot ishida inson kapitali inson faoliyati davomida maqsadga mos ravishda foydalaniluvchi va shaxsiy daromadlari-ning o'sishiga olib keluvchi, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish va hudud taraqqiyotining o'sishiga ko'maklashuvchi, investitsiyalar natijasida shakllangan va to'plangan qobiliyatlar, ko'nikmalar, salomatlik darajasi, axloqiy fazilatlar jamlanmasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Inson kapitalining tuzilmasini atroflicha o'rganmasdan turib, inson kapitalidan amalda samarali foydalanish masalalarini to'la-to'kis tadqiq qilishning imkoni yo'q.

Inson kapitali tushunchasini aniqlashtirish borasida keltirib o'tilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, salomatlik kapitali, madaniy kapital, kasbiy bilim, tajriba va ko'nikmalarining umumiylikini ifoda etuvchi professional kapital inson kapitalining tarkibiy qismlarini tashkil etadi, degan birlamchi xulosani ilgari surishimiz mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan kelib chiqqan holda, inson kapitalini tarkibiy qismlarini tabiiy tarzda shakllangan umumiy va maxsus bilimlar va tadrijiy taraqqiyot natijasida rivojlangan ijodiy innovatsion qobiliyatlar majmuasi darajasidan kelib chiqqan holda, inson kapitali tashkil etuvchilarini tizimlashtirish mumkin.

Shuni alohida aytdi deb o'tish lozimki, ta'lim, sog'liq va madaniyat kapitalini tavsiflovchi va amalda ko'p qo'llaniluvchi qobiliyatlar, ko'nikmalar, bilimlar, kasbiy tajriba, ish tajribasi va shu kabi tashkil etuvchilar "inson kapitali" kategoriyasi tadrijiy taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan bo'lsa, inson kapitalining tashkiliy va tadbirkorlik qobiliyatlari kabi tarkibiy qismlari tashqi muhit o'zgarishlariga bog'liq holda, innovatsion taraqqiyotning keyingi bosqichlarida shakllangan.

Inson kapitali favqulodda ko'p qirrali hodisa hisoblanishini inobatga olgan holda, mazkur dissertatsion tadqiqot ishida inson kapitalining tasniflaridan biri keltirib o'tilgan bo'lib, unga muvofiq umumiy va individual inson kapitali: shakllanish xususiyatlari; investitsiya sub'ektlari; korxonalar va tashkilotlarda inson kapitalidan foydalanish natijalari; mehnat unumdorligi va ish haqi kabi mezonlarga ko'ra tasniflanadi.

Umumiy va xususiy inson kapitali o'rtasidagi farqlanishlardan kelib chiqqan holda, xususiy inson kapitalini tashkilot tomonidan foydalaniluvchi bilim va ko'nikmalar, qobiliyatlar zahirasi, malaka oshirish va qayta tayyorlashga investitsiyalar hisobiga shakllangan kapital sifatida tor ma'noda talqin qilish o'rinli hisoblanadi.

Keng talqinga ko'ra, xususiy inson kapitalini nafaqat maxsus bilim, ko'nikma va malakalar sifatida, balki uzoq muddatli barqaror mehnat munosabatlarini yo'lga qo'yish asnosida olinuvchi iqtisodiy foyda sifatida ham tavsiflash mumkin (Illoong, Eva, 2010).

Inson kapitali insonlar o'z hayoti davomida jamg'aradigan bilim, ko'nikma va salomatlik darajasidan tashkil topadi. Insonlarning salomatlik va ta'lim darajasi inson uchun shubhasiz muhim qiymatga ega bo'lgani holda, inson kapitali esa ularga jamiyatning faol a'zosi sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Fuqarolarning yuqori ish haqi, mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad darajasi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy va iqtisodiy faollik darajasi ko'p jihatdan inson kapitali sifatining yaxshilanishiga bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida barqaror rivojlanish va kambag'allikni kamaytirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, inson kapitalini ham individual darajasida, ham makrodarajada o'rganish dolzarbdir. Umumiy va xususiy inson kapitalini shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini hamda makroiqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda, makro darajada inson kapitalining ikki turi mavjudligi aniqlashtirildi.

Makro darajadagi umumiy inson kapitali - bu hudud aholisining ta'lim darajasini oshirish va rivojlantirish uchun moliyaviy, tashkiliy, institutsional shart-sharoitlar yaratish borasida davlat ko'magi orqali shakllantirilgan va qaysi hududda bo'lishidan qat'iy nazar o'zining universalligi bois talab qilinuvchi insonlarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlari va mazkur qobiliyatlardan foydalangan holda insonlarning hudud va yaxlit tarzda mamlakatning innovatsion taraqqiyotiga qo'shadigan zahirasi.

Makro darajada xususiy inson kapitali - bu hudud aholisining bilim, ko'nikma va qobiliyatlari zahirasi bo'lib, u davlat tomonidan aholining kasbiy saviyasini yaxshilash va rivojlantirish borasida moliyaviy, tashkiliy, institutsional shart-sharoitlar yaratish orqali shakllantiriladi.

Bir tomondan, ushbu ikki turdagi inson kapitalini shakllantirish va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini, boshqa bir tomondan esa, inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish bugungi kunda keng qamrovli jarayon sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida birdek muhim ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda biz inson kapitalining shakllanishi va uning hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilishga harakat qildik. Ko'rib turganimizdek, jamiyat hayotida yuz berayotgan innovatsion o'zgarishlar sharoitida xususiy inson kapitali muhim o'rin tutadi. Ushbu jihat xususiy inson kapitalining aholining uzluksiz ta'lim jarayonida ishtirok etishi orqali shakllanishi va ish beruvchining talablariga xodimning mos kelmaslik xavfini kamaytirishi, shu bilan tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashuvchan tarzda javob bera olishi bilan izohlanadi. Ish beruvchi o'z xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga mablag' sarflashdan manfaatdor bo'ladi. Shu yo'sinda inson kapitalining korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sirini tadqiq qilgan tadqiqotchilar korxonalar o'z ishchi va xizmatchilarining kasbiy ko'nikma va tajribalarini mustahkamlashlariga mablag' yo'naltirish asnosida raqobat kurashida katta ustunlikni qo'lga kiritishini aniqlashtirdilar. Biz bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlarning ikkita katta guruhini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirgan holda, biz quyidagi fikrlarni alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Innovatsion rivojlanish sharoitida, inson kapitali tushunchasini aniqlashtirish borasidagi tadqiqotlar ilmiy va amaliy jihatdan bugungi kunning zarurati hisoblanadi.

2. Inson kapitalini o'rganishda shaxs; investitsiyaviy; iqtisodiy o'sish omili nuqtai nazaridan yondashishlar aniqlashtirildi. Inson kapitalini o'rganishda individual va makro darajalarda yondashish kerakligi isbotlandi.

3. Inson kapitalini o'rganishga yondashuvlarni umumlashtirish va tizimlashtirish inson kapitalining bilim, qobiliyat va ko'nikmalar zahirasi asoslanganligini aniqlashga imkon beradi.

4. "Inson kapitali" tushunchasining tadrijiy taraqqiyotini tahlil qilish uning vaqt o'tishi bilan murakkab tabiatga ega bo'lib borishini ko'rsatadi.

5. Shakllanish va foydalanish mezonlariga (shakllanish xususiyatlari, investitsiya sub'ektlari, foydalanish natijalari) ko'ra xususiy va umumiy inson kapitalini individual va makro darajadagi qiyosiy tahlili bu ikki tur orasidagi farqni aniqlashga, shu bilan ularga ta'riflarni shakllantirishga imkon beradi.

6. Inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish inson kapitalining takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi, insonning hayotiylik tsikli davomida uzluksiz sodir bo'ladigan o'zaro bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

7. Inson kapitalini takror ishlab chiqarish bosqichlari sifatida tug'ilish, farzand tarbiyalash, insonning jismoniy va intellektual jihatdan kuch to'plash davri; kasbiy vakolatlarini shakllantirish va rivojlantirish davri; ijtimoiy, mehnat va ijodiy faoliyatning pasayish davri kabilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Inson kapitalini takror ishlab chiqarish bosqichlari bir-biridan jarayonlarda qatnashuvchi sub'ektlar, investitsiyalar ko'lami va yo'nalishi bilan farqlanadi.

8. Inson kapitalining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar shakllanish sub'ektlari, sohalar, bosqichlari, shakllanish jarayoniga ta'sirining tabiati, shakllanish natijalari kabi xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi. Ushbu omillar orasida individual qobiliyatlar, ota-onalarning ma'lumotlari, aholining ijtimoiy holati, soliq siyosati, mafkuraviy omillar alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar/Lumepamuya/Reference:

Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 5–14. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/39>

Aghion P., Meghir C. (2004). Growth, distance to frontier and consumption of human capital. The Institute for Fiscal Studies, WP04/31, 1—50.

Becker, Gary. (1962) Investment In Human Capital. A. Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, Vol. 70 (5, Part 2, Supplyment). Pp.9-49

Blaug M. (1976) The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey/ Journal of ecomic literature, September 1, 14(3): pp.827-55

Bowen, H.r. (1977) Investment Learning San Francisco . Jossey- Bass. p.507; Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey/ Journal of ecomic literature 1976, September 1, 14(3): pp.827-55

Etzkowitz H., Zhou C. (2017) The Triple Helix:University-industry-government innovation and entrepreneurship. London, NY: Routledge, -327 p.

Hansen A.H. (1951) Business Cycles and National Income–N.Y.

Illoong Kwon. (2010) Specificity of Human Capital and Promotions [Text] / Illoong Kwon, Eva M Meyersson Milgrom. - University at Albany, Stanford University,.

Jacob Mincer: (1958) Investment In Human Capital and Personal Income Disturbution // Journal of Political Economy, 66. August.pp.281-302

Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. (2018). The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.

Mincer J, Polochek S. (1974) Family Investments in Human Capital: Earnings of Woman // Journal of Political Economy Volume 82 Number 2. Part II March/aprel [Http://www.nber.org](http://www.nber.org)

Schultz Theodore (1961) W.investment In Human Capital // The American Economic Review, Vol.51(1), pp.1-17.

World Bank Group. Human Capital: A Project for the World, (2018). October, 13. Development Committee Meeting.

Абдувохидов А. А. и др. САНОАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 40-45.

Акрамова Ш.Г. (2019) Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида инсон капитални ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент.

Барлыбаева, Ф.Б. (2011) Потенциал инновационного развития территории: методика исследования и направления эффективной реализации [Электронный ресурс] / Ф.Б. Барлыбаева, Г.В. Княгинина, И.А. Ситнова // Управление экономическими системами. -. - №3. - Режим доступа: <http://www.uecs.ru/logistika/item/384-2011-04-04-09-03-17>

Кейнс Ж.М. (1993) Общая теория занятости, процента и денег –М.: Экономика.

Ноткин А.И. (1996) Вопросы эффективности и интенсификации общественного производства. М.,

Нурiev P.A. (2000) Теории развития, новые модели экономического роста (вклад человеческого капитала. //Вопросы экономики.-№9.-С.137.

Убайдуллаева P.A. (2017) Институциональные основы и механизмы обеспечения информационной безопасности молодежи. Монография / Под научной редакцией академика P.A.Убайдуллаевой. Коллективная монография; – Т.: Iqtisod-Moliya, – 220с.

Харрод P.K. (1959) Теории экономической динамики: Пер. с англ. – М.: изд-во. Инстр.лит., 1959.

Шараев, Ю.В. (2006)Теория экономического роста [Текст] / Ю.В. Шараев. - М.: ГУ-ВШЭ, - 256 с.

Шумпетер Й.А. (2007) Теория экономического развития. –М.